

“O‘TMISHDAN ERTAKLAR” QISSASIDA OTA VA BOLA MUNOSABATI.

*Nilufar KENJAYEVA
ToshDO ‘TAU magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada yozuvchi biografik qissasida aks etgan bolalik ruhiyatining ko‘rinishlari, adib ijodiy va shaxsiy barkamolligi yo‘lida kimlar asosiy o‘rin tutgani, ijodkor ruhiyatining shakllanishida muhim bo‘lgan omillar, oilaviy muhit, ota va bola munosabati, o‘zbek milliy qadriyatlarining to‘la timsoli otaning farzand kamoli yo‘lida hayot kechirishi, ijtimoiy xalqning hayot tarzi va muhiti, xalqning farzandlar tarbiyasiga qaratilgan turli qarashlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: biografik qissa, bolalik ruhiyati, ijtimoiy muhit, ota va bola munosabati, ota timsoli, ijodkorlik ruhiyati.

“O‘tmishdan ertaklar” qissasi bolalar adabiyotining eng katta boyliklaridan biri sanaladi. O‘tgan asrdagi ijtimoiy tizim va holatini aks ettirishi bilan bирgalikda ilmning qanchalik ahamiyatga ega ekanligini, savodsizlik qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini ko‘rsatib beruvchi yorqin asar hisoblanadi. Asarda Abdulla Qahhorning bolalik davrlari orqali butun davr bolalarining mashaqqati, turmush tarzi, hayot qiyinchiliklari, johiliyat va ilm o‘rtasidagi o‘zaro kurashlar, davrdagi yangiliklar va o‘zgarishlar, bolalar ruhiyatiga tasir etgan omillar va oqibatlar dolzarb mavzuligini yo‘qotmaydigan, keng o‘rganilib chiqiladigan mavzulardir. Qissada Abdulla Qahhorgacha va undan keyin sakkiz farzandini yer bag‘riga bergen ota-onaning ruhiy ifodalari, ilmsizlik oqibatida bid‘atga berilish, turmush qiyinchiliklari sabab vaqtidan oldin ulg‘ayoyotgan farzandlar ruhiyati, ularning o‘g‘irlangan bolalik davrlari mavzulari batafsil yoritilgan.

Yillar mobaynida otasining temirchilik kasbi sabab elma- el ko‘chib yurish, yangi muhit, yangi jamiyatga moslashmasdanoq yangi joyga ko‘chish yosh Abdullaning ruhiyatiga qattiq tasir ko‘rsatgan, ruhiyatida siniqlik paydo bo‘lib, o‘ziga nisbatan ishonch hislarining shakllanishiga yo‘l qo‘ymaydi. Qahhorgacha va undan keyin sakkiz farzandini yer bag‘riga bergen ota-onaning ko‘z qorachig‘idek saqlayotgan farzandining har bir mustaqil harakatlari ota-onasiga olam quvonch olib keladi:

Do ‘konga yakka o ‘zim borganim, qozoq-o ‘risdan qo ‘rqmaganim go ‘dakning biringchi aytgan so ‘zlari singari ota-onamni quvontirib yubordi. Shundan keyin ko ‘chaga bemalol chiqadigan, hatto narigi ko ‘cha va torko ‘chalarga borib, bolalar yotsirasa va o ‘yinga qo ‘shmasa ham, ularning o ‘yinini tomosha qiladigan, shikast yetmasdan, adashmasdan uyga qaytadigan bo ‘ldim.

Bu, albatta, yosh bola ruhiyatini ko‘tarib, uning o‘ziga nisbatan ishonchini oshiruvchi ruhiy dadillik bag‘ishlaydi. Ammo, shularga qaramasdan Abdullada erkatoylik, tantilik xarakterlari shakllanmagan. Abdulla ota-onasining tirik qolgan va voyaga yetgan yagona farzandi bo‘lsada, usti-boshiga yaltiratib kiyim kiya olmagani qissada qayd etilgan. Asardagi bir o‘rinda shunday lavhalar bor: — *Nega dadang kiyimbosh qilib bermaydi? — dedi. Men G‘afforjonga qaraganda juldur kiyimda ekanimni endi payqadim. — Dadamning puli yo‘q, — dedim.* Qahhor tabiatida sokinlik va vazminlik-bosiqlik bo‘lganligi bois ijtimoiy muhit sabab ham ruhiyatda yopiqlik, “indamas”lik paydo bo‘lgan. Uning bu tabiatiga asosiy sabab qilib ko‘p muxojirlikda hayot kechirgani, adabtatsiya(moslashuvchanlik) jarayoniga ko‘nikib ulgurmasdan yana safar, ko‘chib o‘tish balosi yosh Abdullaning ruhiyatida og‘ir izlarini qoldiradi. O‘smirlik davridan o‘spirinlik davriga qadam qo‘yayotgan bola ruhiyatida og‘ir o‘tish jarayonlari kechayotgan bir vaqtida jamiyatning va oila muhitining qora chizgilar bilan kechishi jamiyatdan uzilish, ijtimoiy muhitda “ortiqcha” insonligini his qila boshlashiga sabab bo‘ladi.

Bolalar charchab o‘yin buzilganda narigi tomonning boshlig‘i – hammadan ko‘proq shovqin solib yelib-yugurgan bola meni payqab oldimga keldi, menga boshdan oyoq razm soldi-yu, birdan:

- Kelgindi! – deb urgani qo‘l ko‘tardi.
- O‘zing kelgindisan! – dedim ehtiyyotdan orqaga chekinib.

Bola bir irg‘ib mening kallamga qo‘yib yubordi. Men javob qilolmadim, qarasam, boshqa bolalar ham urmoqchi bo‘lib, ilonni ko‘rgan chumchuqday atrofimda chug‘urlashib turishibdi. Shu payt bizni kuzatib turgan kichkina salla, uzun malla to‘nli novcha bir chol:

— *Qo‘yinglar, bolalar, tegmanglar, kelgindi bo‘lsa o‘zi bo‘libdimi, xudo qilgan, — dedi.*

Bolalar darrov tarqalishdi.«Kelgindi, kelgindi it», degan gapni Olim buvadan eshitganimda buning haqoratdan tashqari yana odam hazar qiladigan ma’nosi ham borligini bilmagan ekanman, cholning bu gapi boshimdan kirib, tovonimdan chiqib ketdi.

Hovliga kirdim. Bu gapni ayamga aytmadim, ichimga soldim. Shundan keyin ko‘chadan, bolalardan ham, odamlardan ham ko‘nglim qoldi. Ayam tuqqandan keyin dardga chalinib, «uy qizi» bo‘lib qolganim ham chandon malol kelmadi.

Ayam O‘lmasoyni tuqqanidan keyin tez o‘ng‘arilmadi, uzoq yotib qoldi. Qo‘shni xotinlar non yopib berishar, kir-chirga qarashar edi. Ro‘zg‘orning boshqa ishlari mening bo‘ynimga tushdi: uy va hovlini har kuni ikki mahal supuraman, dalaga chiqib ko‘targanimcha o‘tin orqalab kelaman, dadamga ovqat pishirgani qarashaman, idish-tovoq yuvaman, suv tashmalayman, O‘lmasoyning latta-puttasini yuvaman...

Bola ruhiyatiga ozor berayotgan voqeliklarni sabab va mohiyatini aniq tushunib tahlil qilaoladi.

Ayam Olim buvaning tashqisida turgan vaqtlarimizda meni ko‘chaga chiqarmaganini, bu yerda ro‘zg‘or ishi bo‘ynimga tushib «uy qizi» bo‘lib qolganimni, u yerda ham, bu yerda ham hech kim men bilan gaplashmaganini unutib:

— *O‘zi shunaqa, indamas, «ichimdagini top» bola chiqdi, — dedi.*

Norozilik kayfiyati ichki kechinmalarda kechgan. Onasining bu tushkun holatdan qiynalishi, ruhiy dalda berish yo‘llarini izlab topaolmaganligi, yosh adibning jamiyatdan uzilish jarayonlari ham uning hayotidadagi ogriqli nuqtalardan biriga aylangan.

Temirchi ustanning «Zinger» olganligi darrov dovrug bo‘lib ketdi. O‘sha zamoni-yoq shu atrofdagi xotin-xalaj uyimizga yopirilib kirishdi. Bularning ichida indamasligim uchun menga ta’zir bermoqchi bo‘lgan semiz xotin ham bor edi. «Zinger»ni bilar ekan, eski dasturxonidan menga birpasda ko‘ylak tikib berdi. Men hammani hayratga solgan ko‘ylakni kiyib darrov ko‘chaga chiqdim. Atrofimda bolalar chug‘urlashar, kelgindi ekanimni ham unutib, hammasi: «Zingeringni bitta ko‘rsat», deb yalinar edi. Men bolalarning yalinganidan o‘zimda yo‘q suyunib chopqillaganimcha uyga kirdim va qaldirg‘ochday chug‘urlab, ayamga qayta-qayta:

— *Bolalar, zingeringni ko‘rsat deyishayapti, — dedim.*

Ayamga «Zinger»ni o‘rgatayotgan semiz xotin yalt etib menga qaradi.

— *Voy, tiling chiqib qolipti-ku! — dedi.*

Ayam ham hayron bo‘ldi, keyin suyundi.

— *Maxsum pochchamning nafaslaridan o‘rgilay, o‘sha kishiga o‘qitgan edik, — dedi.*

Uyalib ketdim. Ko‘ylagimni yechib qo‘ydim. Anchadan keyin ko‘chaga chiqdim. Bolalar tarqab ketishibdi.

Boladagi paydo bo‘lgan ishtiyoqni anglab yetaoimaslik bir taraf bo‘lsa, yana bir tomondan jamiyatning naqadar ongsizlik, ilmsizlik muhitiga tushib qolganligi bir taraf. Bolada ishtiyoq va qiziqishni paydo qilgan asli omil sifatida qaysidir “Ucharmaxsum”ga eltib o‘qitish va tupigidan yalatish orqali davo topish xalqning qanchalik ilmga muhtojligini ko‘rsatib qo‘yadi. Uni rag‘batlantirish, ijtimoiy muhitga olib kirish kabi ilk qadamni otasi maktabga olib borib yosh Abdullani o‘qitish istagini harakatida namoyon bo‘ladi.

Ertadan senga kitob, daftar, qalam, beraman, o‘qiysan, xat mashq qilasan, -dedi.

-Tiling salgina chuchuk ekan, mayli, tutal aytib yursang burro bo‘lib ketadi. Qani, ayt-chi: tutning tomirini turp tutib turipti, turpning tomirini tut tutib turipti!

Siniqlik, ruhiy zo‘riqish oqibatda portlovchi nuqta bo‘lib Yayınpanga ko‘chib kelganidan buyon dam bosishdan bo‘sholmay, bolalarga qo‘shilmagan yosh Abdulla

yolg‘iz o‘zi yurib, kimsasiz bir boqqa kirib birdan ko‘ngli to‘ladiy-yu, ko‘kragidan yig‘i o‘rniga kuy otolib chiqadi. “*Qayerga borsam kelgindiman...bolalar o‘yinga qo‘shmaydi...*” azoblanayotgan beg‘ubor qalbning ruhiyatiga bu muammolar og‘irlilik qiladi.

O‘lmasoyni dunyoga keltirgandan so‘ng onasining ahvoli bir muncha muddat og‘ir kechishi, “Ucharmaxsum”ga tinimsiz o‘qitish, biroz o‘zini o‘nglagach xotin-xalajlarning taomiliga ko‘ra “sichqon surdi” marosimini o‘tkazish, Umarali ukasining og‘irlashganida “Azizlarga bir jondor ko‘tarish”, uning murg‘ak og‘riyatgan, cho‘g‘dek issig‘i chiqayotgan joniga childirma bilan “ko‘chirdi” qildirish, tabibning davo sifatida aytgan kabobning seli oxirgi luqmasi ekanligi tushungan otasining ichki tug‘yonlari nafaqat farzand dog‘i bilan kyunish, balki sog‘lig‘ini savodsizlik sababsiz har xil bid’atlarga ishonib topshirayotgan xalqning eng og‘riqli nuqtasining portlashi bo‘lib aks etadi. Diniy va dunyoviy bilimlari yetarli bo‘lмаган xalqning soddalik va ishonuvchanligi yuqori bo‘ladi.

Juvon bu yog‘i Shoposhshadagi allaqaysi bir shayxdan tortib, Qo‘qondagi G‘ishtko ‘prik folbinlarigacha rom ochiribdi. Hamma rom bir joydan chiqib: Juvon bu xususda o‘rtancha kundoshidan gumondor ekan. Uning kuyib-pishib aytishiga qaraganda, bola ko‘rmaganing sababi ham o‘sha kundoshi ilm-u amal qilib pushtini kuydirgani ekan. Uning bu yerga kelishidan murodi qaytarma qildirish va kundoshining ilm-u amalini duo bilan kuydirtirish ekan. Juvon zor-zor yig‘lar, ayamga yolvorar, uning yelkalarini silar, oyoqlariga bosh qo‘yguday bo‘lar edi. Ayam har ishqo ‘lidan keladigan-u tarang qilgan bir alpozda edi.

Shu o‘rinda Umarali dunyoga kelishi uchun onasining do‘xtirxonaga borib yotishi uchun yigirma besh so‘mlik qog‘oz pul tasviri ham keltiriladi. Asar jonli chiqishi uchun yozuvchi har bir holatni boshidan o‘tkazgan yoki his qilgan bo‘lsagina uning qiymati yillar mobaynida ham futur yetmasdan saqlanib qolaveradi. “Bemor” hikoyasining har bir o‘rni jonli bo‘lib, adibning hayotiy o‘rinlaridan olingan. Shu sababki, kitobxon har safar uni qo‘liga olib o‘qiganda qalbida ilmsiz jamiyatga nisbatan nafrat, biroz achinish hislarini tuyadi.

Buvaydida yashagan kezlari Kulalaning “ko‘z baxshilik” qilgani, “duoning kuchi bilan qulf ochgani” xalq og‘ziga tushib, uning shogirdi shunday bo‘lsa ustozining ilmiga qandayligiga ta’rif topisholmaydi. Usta Abduqqahordan “usta piyirm”ga aylanadi. Avvaliga, usta bu gaplardan o‘zini mumkin qadar olib qochdi, keyinchalik uyiga kelgan xotin-xalajning va ayolining yalinib- yolvorishlari sabab ularni ko‘p yalantirmay qo‘yadi. Uyiga kelgan xotinlar machit tomondan kelib, to‘g‘ri eshikchadan “chiltonxonaga”ga kiradigan bo‘lishadi. Ammo xalq ichidagi yurgan gaplar sabab “duo menga yuk tashladi”, deya kelgan ayollarni qayataradi. Aql bilan bu vaziyatdan chiqqan usta Abduqqahorning fe'l-atvori bosiq, vazmin, kamtar, samimiyl

va biroz shaddod bo‘lgan. Zamona zayli va turmush tarzi sabab ko‘p qiyinchiliklarni boshidan o‘tkazganligiga qaramasdan farzandining tolesiga befarq bo‘lmaydi. Uning o‘qishi va qanday o‘qiyotganligini nazoratga olib turadi. Mehnatda toblanib, ilm o‘rganayotgan insonning farzandi tolesiga yaxshillik ulashishi, niyat bog‘lashi ayon.

Dadam bir kechasi kitobxonlikdan keyin, yotish mahalida qora saqichni chiroqqa toblab qo‘liga bosar ekan, birdan, ”Abdullani mакtabga beraman, har qancha saqich bo‘lsa men bosib bo‘ldim, deb qoldi. Men qo‘rqib ketdim, chunki maktabdning ta’rifini eshitgan edim: domla behining novdasi bilan uradi, moshga cho‘kkalatadi, falaqqa osadi... Bir qassob yetaklab ketayotgan echkisi yurmay tarxashalik qilganda: ”Ey jonivor, yuraversang-chi, men seni mакtabga olib ketayotganim yo‘q, kushxonaga olib ketayotibman-ku”, degan ekan...

Yosh adibning ilmgaga bo‘lgan ishtiyogi otasidan kitoblar o‘qib bergenligi va eshitganligi sabab o‘tadi-yu, ammo mакtab taassurotlari bo‘lmaganligi sabab va eshitgan gaplari sabab xohishi bo‘lmaydi. Adib amakisining o‘g‘li G‘affarjonning o‘qishiga nisbatan havas bilan qaraydi. U ham erka-tantiq bo‘lsa-yu, kampir undan bezor bo‘lganidan uni o‘qishga yubortirsa.

Abdulla Qahhor zehnda Oybekdan qolishmagan: ”Ikki hafta harflar bilan yozilgan “taxta” o‘qiganidan keyin domla: “Shanba kuni haftiyakka tushasan, dadanga ayt, haftiyak olib bersin”, dedi. Juda suyundim. Dadam darrov haftiyak olib keldi. Ayam” Xudoga ming qatla shukr”, deb haftiyakka bo‘zdan jild tikib berdi.

Usta Abduqqahor temirchi bo‘lishiga qaramasdan zehnli, ilmi o‘tkir inson bo‘lgan. U oriyatli, to‘g‘ri so‘z, diyonatli bo‘lganligi sabab jamiyat insonlaridan ko‘p pand yeydi. O‘g‘liga xato saboq berayotgan domilasining yonidan olib kelib, o‘zi o‘qita boshlashi ijtimoiy muhit bir ahvolda ekanligida farzand uchun qilingan eng favquloddagi oljanob va yuksak ish bo‘lib muhrlangan. Otasi bilan yonma yon yurib ulg‘aygan adib oilaviy muhit muammolarini va holatini tezda anglab yetar va oldindan qabul qilinadigan qarorlarni his qilar edi. Bu adib oilasining yutug‘i sanaladi.

-Buvaydiga ketishgandir! Dadam Valixon so‘fini topib otib tashlaydi. So‘fi dadamni alamon qildirib yuborishiga sal qolgan edi, -dedim.

Adib o‘z mustaqil fikrlarini batafsil, erkin bayon eta boshlaydi. Mustaqil qaror qabul qilib harakat qilishi o‘spirlilik vaqtlaridan boshlanadi. Mamajon o‘rtog‘ining otasini bosqinchilar o‘ldirganligi sabab undan xol-ahvol so‘rash maqsadida mакtabdan javob olib bormoqchi bo‘lganida ustozи xursand bo‘ladi. Topolmay ertasiga borganda ham uning qishloqqa qaytganligi va boshqa ko‘rishmasligini bilgach Qahhorning og‘riqli xotiralari muhrlanadi.

Qissada e’tiborli jihatlardan yana biri shundaki, adib oilaviy muhitida buvi va nabira, kelin va qaynona munosabatlari sog‘lom bo‘lmagan. Abdulla Qahhorning Oybek singari mehribon bobo-buvisi ham, doimiy yashash uchun tinch bir go‘shasi

ham yo‘q. To‘g‘ri, “O‘tmishdan ertaklar”da ham bolaning buvisi bor, lekin biz bu obrazda o‘zbek buvilariga xos bolajonlik, issiq bag‘ir, mehrni sezmaymiz.⁴³ Bu kamol topayotgan yosh bola ruhiyatida muammoli vaziyatlarni keltirib chiqargan. Asar davomida yozuvchi hech bir o‘rinda “buvim”, “momam” emas “kampir” leksemasini ishlatib boradi. Voqealar rivojidan ham anglash mumkin Qahhor buvisiga nisbatan zarracha mehr qo‘ymagan, uning xotiralarida iliqlik bilan olinadigan o‘rinlar yo‘q.

“Erta yotdik. Kampir sandal ko‘rpani o‘zining ustiga tortdi. G‘afforjon ikkovimizga joy soldim. Uxlab qoldik. Bir mahal G‘afforjon uyg‘onib suv so‘radi. Qorong‘ida kampirning vag‘illagan tovushi eshitildi: ”O‘l! Og ‘zingni ochib yot, chanqog‘ing bosiladi!“ -dedi. Men yetimga rahmim kelib, suv keltirdim.

Bu o‘rinlarda kampirdagi qarilik xislatlari bilan birgalikda xudbinlik xislatlari ham qo‘shilib ketadi. Ayniqsa, Savrinisoning vafoti yosh adibning yuragini larzaga keltirgan edi. Ukasi G‘afforjondan ham ko‘proq achinish va suginish hislarini tuygandek his etardi o‘zini. Amakisining oilasi shu zulmga qoplangan va bu gumbaz ostidagilar ham shunga konikkan insonlar edi. Bitta Savriniso yorug‘lik tomon intildi va unga erishdi...

Bu hovliga uzoqdan ko‘zim tushsa ham odamlarning yelkasida tebrangan Savrinisoning tobuti, qizining o‘limini eshitib yig‘lagani darmoni yetmaganonasi ko‘rpa-yostiq ortib g‘altakarava surib ketayotgan Azim duduq, bo‘yi bir qarich, soqoli uch qarich chol-G‘affarjon ko‘z oldimga kelar edi.

G‘afforjon tarbiyasidagi noqislik, erka-tantilik me’yoriy holat bolib, buvisi tomonidan himoya qilinishi oqibatida G‘afforjondagi mehr tuyg‘ulari va shavqat, insoniylik hislari yo‘qolib boradi. Onasining o‘limidan so‘ng Nisobuviga uylangan otasi uning katta qizi Ominani G‘afforjonga fotiha qilib qo‘yadi. G‘afforjonning unga nisbatan bolgan munosabati ham kulguli ham ayanchli edi. Qahhor qizlar taqdiriga achinish, kuyunish tuyg‘ularini takror-takror keltiradi.

Shaftoli shoxi larzon,
Har narsadan qiz arzon,
Bahosini so‘rasang,
Qalamni ko‘ylak, bo‘z ishton...

Bularning barchasida oiladagi muhitning nosog‘lomligi sababdir. Kampir leksemasini qo‘llash orqali adib bu insonni o‘zidan yiroqda tutadi. Uydagi jamiki fojealar sababi sifatida buvisini gavdalantiradi.

⁴³ A.Zaripov.Bolalikning ikki xil rangibolalikning ikki xil rangi. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7844064>

International Conference on Education and Innovation

Har bir holat qo‘rquinchli kechgan, doimiy “vag‘illashlar”, ”qarg‘ashlar”, zulm oddiy holday qabul qilinib oila muhitini tubanlikka qarab boshlagan.

Iymonsiz kampir ukam O‘lmasoy ikkovimizni ham qo‘shig‘iga qo‘shdi: ”Sendan bo‘lgan bola nima bo‘lar edi. Itdan bo‘lgan qurbanlikka yaramaydi...” -dedi. Bo‘ynimga osilgan la’nat “kelgindi”, ”ko‘chmanchi”, ”musofir” degan so‘zlar ham bir bo‘ldi-yu, kampirning bu gapi ham bir bo‘ldi.

Kampir har ishdan har ishkal topar, har bahon abilan ayamni urishar, qarg‘ar, dadamga aytib urdirar, dadam so‘ziga qulq solmasa: ”Ona rozi-xudo rozi” xotin topiladi, ona topilmaydi! ” -deb o‘zi ham yig‘lar edi.

Xotirlar yig‘ilib buvisini yodga olganda, ”Xudo” deganda uning yosh hayollarida:

“Men suygan bandasiga kasallik yuboradigan, bolalarni o‘zi berib o‘zi oladigan, odamlarga jon omonat beradigan, bizni ko‘chmanchi, kelgindi, musofir qilgan va qilish-qilmishi odamlarga ranj-alam yetkazishdan iborat bo‘lgan ”Xudo” ning shakl-shamoliyini, aft-angorini, soxt-sumbatini sira ko‘z oldimga keltirolmas edim, bora-bora” Xudo” deganda boshiga yelka aralash doka ro‘mol tashlab, sandalining chetida ko‘rshapalakdek bukchayib o‘tiradigan kampir o‘tiradigan kampir ko‘z oldimga keladigan bo‘ldi.

Jamiyatdagi bu muammolar bugungi kunda ham mavjud. Bilimsizlik, ongsizlik insonlar hayotida ayanchli oqibatlarni keltirib chiqarmoqda.

Asarda hissiyotlar ifodasi e‘tiborli, kechinmalarning go‘zalligi o‘zgachalikni kasb etgan. Oddiy ilk bahor faslida yetiladigan qarluq shevasidagi “g‘o‘ra” qipchoq lahjasidagi “dovucha” o‘rikning ayni mevaga aylanayotgan vaqtidagi holatini ta’riflar ekan tasvir ifosidayoq inson uning mazasini his etadi.

“G‘o‘ra chigitdan katta emas edi, lekin yeganimda hamma yoqni bahor hidi tutib ketdi, butun bahorni shu chigitdakkina g‘o‘raning ichiga qamab qo‘yilganday tuyildi.”

Qissada yozuvchining bolalik beboshligi, shaddodliklari ham aks etgan. Adib tushunib-tushunmasdan qo‘l urgan nodonliklarining iqrorlariga ham to‘xtaladi...

Xulosa qilib aytganda, adib ijdoning o‘ziga xoslilik keltirib chiqaruvchi hayotiy realliklar bilan asoslangan asarlariga tub ildiz bo‘luvchi bu qissa adib shaxsiyatining yanada ochiqlanishiga sabab bo‘ladi. Bu hammaga nasib etadigan va hamma yozuvchidan talab qilsa bo‘ladigan xususiyat emas. Barcha buyuk yozuvchilardek, Abdulla Qahhorning ham shaxsi — ijodiga, ijodi — shaxsiga bir ko‘zgudir. Adib ijodini sevganlar albatta uning shaxsiga maftun bo‘ladi, shaxsini bilganlar esa — uning ijodidan ayri yashayolmaydi.⁴⁴ Adib asarlarida yashaydigan fojeaviy- dramatik ruh, kir va qorong‘u nuqtalarning yoritilishini tanqid ostiga oluvchilar uchun javob tariqasida yaratilgan “O‘tmishdan ertaklar” qissasining o‘zi yetarlidir. Qissada ijodkor

⁴⁴ Ibrohim Haqqul. Abdulla Qahhor jasorati & Ozod Sharafiddinov. Fikr erkinligi — zarur ehtiyoj. Ibrohim Haqqulga ochiq xat & Abdulla Qahhor tavalludining 115 yilligiga bag‘ishlangan ‘Bugun’ radiodasturi.

International Conference on Education and Innovation

ruhiyatining badiiy va real holati aniq aks ettirilganligi, deyarli bacha asarlari ushbu hayotiy reallikka asoslanib yaratilganligi adib ijodining eng ulkan yutug‘idir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Bahodir Karim. “Adabiyotshunoslik metodologiyasi” T: “Muharrir” 2011
2. Bolalar adabiyoti va zamonaviylik. T: 1981
3. A.Qahhor."O‘tmishdan ertaklar".T; Yoshlar matbuoti.2023
4. A.Zaripov.Bolalikning ikki xil rangibolalikning ikki xil rangi.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7844064>
5. Ibrohim Haqqul. Abdulla Qahhor jasorati & Ozod Sharafiddinov. Fikr erkinligi — zarur ehtiyoj. Ibrohim Haqqulga ochiq xat & Abdulla Qahhor tavalludining 115 yilligiga bag‘ishlangan ‘Bugun’ radiodasturi.

